

OHANGLAR UMMONIDAN YANGRAGAN PREMYERALAR

Kayumova Shalola Rustam qizi

*O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Musiqiy nazariy va tarixiy fanlar"
kafedrası 1-bosqich talabasi*

Joriy yilning 8-aprel sanasi o'zbek musiqa san'ati yilnomasiga o'chmas va zarhal harflar bilan muhrlandi. Shu kuni poytaxtimizdagi "Yoshlar ijod saroyi"da O'zbekiston musiqa madaniyatining yorqin timsoli, zamonamizning sermahsul va iste'dodli kompozitori Oydin Abdullayevaning ijod olamiga bag'ishlangan mualliflik konsertida san'at ahli jam bo'ldi.

Ushbu konsert joriy yilning 6-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlash haqidagi qarori"ga javoban o'tkazilayotgan tadbirlardan biridir. Dasturning muqaddimasi bo'lgan "Yangi O'zbekiston" uvertyurasi o'zining salobatli ruhi va g'oyaviy teranligi bilan tinglovchilarga yuksak vatanparvarlik kayfiyatini olib kirdi. Kechaning kulminatsiyasi esa ketma-ket taqdim etilgan uchta jahon premyeralari bilan davom etdi. Kompozitorning "Jaman shig'anaq" nomli 3-simfoniya hamda "Zebo pari" nomli 4-simfoniylarida milliy simfonizmning zamonaviy talqini va falsafiy mushohadalari o'zaro uyg'unlashdi. Trombon va orkestr uchun konsertni esa xalqaro tanlovlar laureati Burhon Sulstonov o'zining mohirona ijrosi bilan asarning dramatik ko'lamini ochib berdi.

O'zbekiston Davlat simfonik orkestri hamda uning badiiy rahbari va bosh dirijyori, O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin O'rinboyevning o'ziga xos talqini har bir tovushga ifodaviylik va chuqur emotsional mazmun bag'ishladi. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor Nodira Amanovanning tahliliy mulohazalari esa tinglovchini musiqiy asarlar mohiyatiga yanada chuqurroq olib kirdi.

Zalni to'ldirgan professor-o'qituvchilar, mashhur kompozitorlar va san'at arboblarning e'tiroficha, bunday keng qamrovli premyeralar shodiyonasi o'zbek musiqa olami uchun uzoq kutilgan tuhfa bo'ldi. Konsert yakunidagi tinimsiz davom etgan gulduros qarsaklar va sahnani to'ldirgan cheksiz gullar Oydin Abdullayevaning shaxsi va ijodiga bo'lgan yuksak ehtiromning isbotidir!